



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Erbutayeva Shalola Utkirovna

SamDU magistranti
shalolaerbutaeva204@gmail.com

O'ZBEK TILIDAGI KO'MAKCHILASHAYOTGAN AYRIM SO'ZLAR XUSUSIDA

Annotatsiya. Ko'pgina funktsional ko'makchilar ot, te l, ravish turkumlaridan ko'chgan bo'lib, tarixiy taraqqiyot natijasida ko'makchilashgan va ko'makchilashish jarayoni davom etayotgan turkum hisoblanadi. Bizning tadqiqotimizda shu kabi funktsional ko'makchilarning badiiy matn tarkibida anglatgan ma'nolari lug'atlar yordamida izohlab berishga harakat qilindi.

About some auxiliary words in Uzbek language

Annotation. Many functional auxiliaries have moved from the categories of nouns, verbs, and forms, and are a series of auxiliaries that have evolved over time and are in the process of being assisted. In our study, we tried to explain the meanings of similar functional aids in the literary text using dictionaries.

О некоторых вспомогательных словах в узбекском языке

Аннотация. Многие вспомогательные функциональные группы перешли из категорий существительных, глаголов и форм и представляют собой серию вспомогательных средств, которые со временем эволюционировали и находятся в процессе оказания помощи. В нашем исследовании мы попытались объяснить значение аналогичных функциональных средств в художественном тексте с помощью словарей.

Kalit soʻzlar. Koʻmakchi, funksional koʻmakchi, ot soʻz turkumiga oid koʻmakchilar, koʻmakchilashish, peshtoq, peshtoqida, boʻsagʻa, bagʻrida, qirgʻogʻida, ayvonida koʻmakchilashish bosqichidagi soʻzlar.

Keywords. Auxiliary, functional auxiliaries, auxiliaries belonging to the category of subjects word, on the roof, on the porch, on the threshold, on the lap, on the shore, on the porch auxiliary.

Ключевые слова. Вспомогательные, функциональные вспомогательные, вспомогательные, относящиеся к категории конского слова, вспомогательные, вспомогательные, вспомогательные .

KIRISH. Har qanday til oʻzining ichki qonuniyati asosida rivojlanadi. Tildagi leksik qatlamlar asosida neologizm (yangi soʻzlar) vujudga kelganidek, arxaik (eskirgan) soʻzlar isteʼmoldan chiqib boshlaydi. Shuningdek, tilda yangi soʻzlarning paydo boʻlishi u tilning leksik boyligining rivojlanishida, grammatik strukturasi takomillashishida katta ahamiyatga egadir.

Maqolada funksional koʻmakchilarning oʻziga xos xususiyatlari, ot, feʼl, ravish turkumiga oid funksional koʻmakchilar, ularning kelib chiqishi va koʻmakchilashgan, koʻmakchilashayotgan soʻzlar tahlil etildi. Izlanishlarimiz natijasida quyidagi koʻmakchilashayotgan leksemalarga duch keldik:

asno//asnosida,asnosidan,asnosiga;

arafa//arafasida,arafasidan,arafasiga;

ayvon//ayvonda,ayvondan,ayvonga;

bagʻir//bagʻrida,bagʻriga,bagʻridan;

bahona//bahonasida,bahonasidan,bahonasiga;

badal//badalida,badalidan,badaliga;

boʻsagʻa//boʻsagʻasida,boʻsagʻasidan,boʻsagʻasiga;

biqin//biqinida,biqiniga,biqinidan;

dasti//dastidan,dastiga,dastida;

girdob//girdobida,girdobiga,girdobidan;

gird//girdida,girdiga,girdidan;

ilinj//ilinjida,ilinjiga,ilinjidan;

ogʻush//ogʻushida,ogʻushidan,ogʻushiga;

pay//payida,payidan,payiga;

peshtoq//peshtoqida,peshtoqidan,peshtoqiga;

qirgʻoq//qirgʻogʻida,qirgʻogʻidan,qirgʻogʻiga;

qaʻr//qaʻrida,qaʻriga,qaʻridan;

qoʻyin//qoʻynida,qoʻynidan,qoʻyniga;

qoʻl//qoʻlda,qoʻldan,qoʻlga;

qanot//qanotida,qanotiga,qanotidan;

ruh//ruhida,ruhiga,ruhidan;

lab//labida,labidan,labiga;

poy//poyida,poyidan,poyiga;

og 'iz//og 'zida,og 'zidan,og 'ziga;

markaz//markazida,markazidan,markaziga;

ko 'y//ko 'yida,ko 'yidan,ko 'yiga;

kasri//kasriga,kasridan,kasrida;

tub//tubida,tubidan,tubiga;

yo 'sin//yo 'sinida,yo 'siniga,yo 'sinidan;

Tadqiqot metodologiyasi. Biz tadqiqot ishimizda ko'makchi turkumiga oid leksik birliklar tahlili izohli va etimologik lug'atlar yordamida amalga oshirdik. Matn tarkibida ko'makchi vazifasida qo'llanilayotgan birliklar tavsifiy va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan holda tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Biz tahlil etayotgan ko'makchilashish jarayonidagi so'zlar she'riy va nasriy matnlar tarkibidan olindi. Jumladan, Eshqobil Shukur qalamiga mansub ushbu misralarda *peshtoq* so'zi quyidagicha keltirilgan.

Rahmat yomg'irlari yog'di falakdan,

Payg'ambar kemasi–xayot beshigi.

Bir yorug' daricha ochdim yurakdan,

Ochildi saodat,sevgi eshigi.

Uning peshtoqida yam-yashil qushlar,

O'zidan nur tarab sayraydi oyat.

Guldurak gulduros otib olqishlar,

Bu oqshom dil sari kelibman,shoyad.¹

Eshqobil Shukur ijodiga oid ushbu misralarda “peshtoq” so'zi *uning (yurakning) peshtoqida* birikmasi ko'makchi turkumiga oid so'z bo'lib, aslan ot turkumiga mansub. Etimologik lug'atda peshtoq tojikcha pesh I – oti bilan (q) Binoning eshik (darvoza) tepasidagi yarim doira shaklida qurilgan qismi ma'nosini anglatadigan *toq* otidan iborat.² Demak, pesh(tojik)+toq(o'zbek)qismlaridan iborat ekan. O'zbek tilining izohli lug'atida esa bu so'zning ma'nosi birmuncha aniqroq izohlangan. Peshtoq [fors.olda.gumbaz, arka; gumbaz, qubba]. Madrasa, masjid, maqbara, karvonsaroy kabi binolarning old tomonidagi serhasham yuqori qismi; mehrob shaklli baland darvoza, ark. *Peshtoq chekkasida she'rlar tasvirlangan.* O'.Hoshimov.Ikki eshik orasi.³ *Peshtoq* so'zi ot turkumiga mansub so'z bo'lib, ko'makchi turkumga ko'chgan deyishimiz mumkin. Bir turkumdan boshqa turkumga ko'chish uchun ma'lum bir davr

¹ Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. Шеърлар ва достон. – Тошкент: “Шарк” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси, 2002. – 318 б.

² Ўзбек тилининг етимологик луғати(туркий сўзлар II жилд).Университет.Тошкент.2000.190-бет

³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, - Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси нашриёти,2006-2008.

kerak bo'lishi bilan birga, yozuvchi, shoirning badiiy mahorati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mahmud Toir ijodiga mansub quyidagi parchada ham *peshtoq* so'zining ko'makchi turkumiga siljiganini aniqroq ko'rishimiz mumkin.

Dunyoni kashf etib, dunyoni bildik,

Tadqiq eta oldik yomg'irni, qorni,

Falak peshtoqiga bayroqni ildik,

Bildik borliq aro har neki borni.⁴

Ko'makchilashish jarayonida so'zning ma'nosi mavhumlashib boradi, metaforik ma'no ifodalaydi. Bunda biz har qanday metaforik ma'no ifodalagan so'zni boshqa turkumga ko'chgan deyolmaymiz. Bir turkumdan boshqa turkumga ko'chish hodisasi ham ma'lum qonuniyatlarga asoslanadi. Ko'makchilashish jarayonidagi mana shunday qonuniyatlarga quyidagilarni olishimiz mumkin. Kelishik qo'shimchalarini qabul qilganligi va ular bilan sinonimik munosabatga kirishuv.

Birga *Haqning ayvoniga* boradi,deb,

Qaldirg'ochlar qo'llarimdan tutib olgan.

Hech bo'lmasa, panoj so'rab beradi, deb,

Oyog'imga kiyikchalar yotib olgan.⁵

Haqning ayvoniga birikmasi bevosita Haqning oldiga degan ma'no ifodalayotgani sir emas. *Ayvon* so'zi o'zbek tilining etimologik lug'atida arab tilidan o'zlashgani aytilgan. *Ayvon* arabcha - qasr; oldi ochiq bino.⁶ Bu so'z ot so'z turkumiga oid bo'lib, matn talabi bilan yordamchilashgan shaklda ham uchraydi. Etimologik lug'atda keltirilishicha, bu so'zning poetik shakli XIX asrda ham uchraganining guvohi bo'ldik.

M: *Yo'q jahon ayvonida oning kibi sho'x-u zarif* (Avaz O'tar). Izohli lug'atda ham bu so'zning ma'nosi etimologik lug'atda keltirilgandek berilgan. Muallif *Haqning huzurida, oldida, qoshida* so'zlarining o'rniga aynan *ayvon* leksik birligini ishlatish orqali birikmaning ta'sirchanligini oshirgan. Bundan tashqari biz yana quyidagi so'zlarning ko'makchilashishini ko'rishimiz mumkin.

⁴ To'xliyev B, Karimov B, Usmonova K. Adabiyot. 11-sinf (II qism), - Toshkent, O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.. Davlat ilmiy nashriyoti .2018. 92-bet.

⁵ Бехзод Фазлиддин. Сен қачон гуллайсан. Тошкент. Мехридарё, 2008. 34-бет.

⁶ Ўзбек тилининг етимологик луғати. Университет. Тошкент. 2000. 49-бет.

M: *Biz bugun yigirma birinchi asr bo'sag'asida turibmiz. O'tgan asrlar adabiyoti-yu, ularning namoyandalari olisda qolib ketgan.*⁷

Bo'sag'a so'zi 1.ayn. ostona. Yomonning to'rida yotguncha, yaxshining bo'sag'asida yot (Maqol).

2.Ko'chma ma'noda biror hudud, manzilning kirish joyi, ostonasi.

3. Ko'chma ma'noda biror marosim, muhim sana, sh.k. boshlanish davri, arafa.⁸ Biz keltirgan misolda bo'sag'a so'zi ot turkumiga mansub bo'lib, "boshi" funksional ko'makchisining o'rniga, ekspressivlikni ifodalash uchun qo'llanilgan. M: *Ikki yonda, boshlar uzra rangin chiroqlar silsilasi. Biz tushgan kema ana shu turfa **yog'dular bag'rida** suzib borayotir.* (O'sha asar, 4-bet) *Bag'rida* leksik birligi bag'ir - inson organi, quchoq ma'nosini ifodalovchi ot so'z turkumiga mansub leksema hisoblanadi. *Bag'ir* so'zining izohi quyidagicha, (3-shaxs birligi - bag'ri) 1.ayn, jigar. Ot - sag'ridan, qo'y -bag'ridan (maqol). 2.Ko'chma. Tananing bo'yindan qoringacha bo'lgan old qismi; ko'ks, ko'krak, to'sh. (Nilufar qo'g'irchoqni bag'riga bosdi).

3.Ko'chma. Quchoq, himoya, panoh, yon.

4.Ko'chma. poet. Yurak, qalb, dil;

5.Jo'g'rofiy hududning yon,nishab tomoni;

6.Ko'chma. Ulkan, cho'zilgan hududli makon. Fazo.⁹ Ko'rinib turibdiki, tahlil etilayotgan leksik birligimiz denotativ ma'no bilan birga bir qator konotativ ma'nolarni ham izohlab kelar ekan. Biz ko'rayotgan sintaktik butunlik tarkibida kelayotgan *bag'ir* leksemasi *ichra/ichida/ora* kabi ma'nolarni izohlab beryapti. *Ikki yonda, boshlar uzra rangin chiroqlar silsilasi. Biz tushgan kema ana shu turfa **yog'dular bag'rida /ichra/ichida/ora** suzib borayotir.* Ko'makchilashish hodisasini yanada aniqroq ifodalash maqsadida ularni kelishik affikslari bilan almashtirib qo'llashimiz mumkin. *Ikki yonda, boshlar uzra rangin chiroqlar silsilasi. Biz tushgan kema ana shu turfa **yog'dular (bag'ri)da** suzib borayotir.* Ko'makchilarga nisbatan kelishik affikslarida yo'nalish yoki obyekt aniqroq ifodalanadi. Ko'makchilar yoki ko'makchilashish bosqichida bo'lgan leksik birliklarda bu ma'no biroz noaniqroq bo'ladi. Ot so'z turkumiga oid ko'makchilashish jarayonidagi leksik birliklar ichida inson organlari bilan bog'liq birliklar ko'p uchrashiga guvoh bo'ldik.

⁷ Эркин Аъзам, Шовкин. Роман. Қисса.Ҳикоялар Тошкент- "O'zbekiston" – 2011

⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, - Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси нашриёти,2006-2008.

⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, - Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси нашриёти,2006-2008, 191-бет.

1. *Qor qo‘ynida, harir-ko‘kish to‘zon ichra xira miltillagan uchta chiroq bazo‘r sudralib kelayotir. Nihoyat! Ikkitasi yer bag‘irlagan, uchinchisi teparoqda. Ikki qo‘lida ikkita dur, peshonasida oltin jig‘a...*

2. *Tushimizmi bu, o‘ngimiz? Ishonar-ishonmas mashinaga kiramiz. Ichkarida, haydovchining **biqinida** bir juvon ham bor ekan.*

3. *Musofirning o‘rtancha qizini Kattakonning kuchugi qopgani xabari kelganda biz qo‘rg‘on **og‘zidagi** qo‘lbola choyxonamizda qartabozlik bilan mashg‘ul edik.*

4. *Chaqir endi! — deb dag‘dag‘a qiladi **oshxona og‘zida** engining uchini tishlab shumshaygan xotiniga.*

5. *Endi o‘sha kishini supa **labida** cho‘nqayib o‘tirgan holatda ko‘ramiz. Supa **poyida** tik turgan xotini Musallam opa obdastani baland ko‘tarib, ohista jildiratib suv quymoqda.*

6. *Ko‘ktosh guzari **biqinidagi** baland yalanglik gavjum. Aksariyati qizil-yashil, guldor libosli xotin-xalaj, bola-baqra. Bir to‘dasi onalarini javratib beriroqda koptok tepish bilan ovora. Qiy-chuv avjida.*

7. *O‘shni hovlida belini ro‘mol bilan tang‘ib olib supa **labidagi** jomda kir yuvayotgan ayol bilaklaridan sovun ko‘pigini sidirarkan, murosa qilolmay ovora: — Sizlar yaqindagina sug‘organ edilaring-ku, Karomatoy? Mana, menikini qarang — qaqrab, taqron bo‘lib yotibdi!*

8. *Pastak kulbadan beriroqdagi loysupa o‘rtasida bahaybat bir tut bo‘y cho‘zgan edi! — Tanasining ayriligi ham o‘sha-o‘sha, kavagi g‘**orning og‘ziga** o‘xshashligi ham... Yo qudratingdan!¹⁰*

Demak, ot so‘z turkumiga oid ko‘makchi so‘zlar bugungi adabiy tilimizda ko‘plab uchraydi degan fikrga keldik. Shunga qaramay, yuqorida keltirilgan leksemalar kabi “oraliq” turkumning ham o‘z “talablari” bor. Ana shunday talablarga javob bera oladigan leksemalarnigina biz ko‘makchilashish jarayonidagi leksemalar guruhiga kiritishimiz mumkin. *Qirg‘oq* so‘zi etimologik lug‘atning I bobi (Turkiy so‘zlar) guruhiga kiritilgan. *Qirg‘oq chet, yoqa, sohil* ma‘nolarini anglatadi. Tarixan shakllanishi qadimgi turkiy tilda qo‘llanilgan bo‘lib *қырғағ* shaklida talaffuz qilingan bu so‘z “to‘n jiyagi, chalmasi” ma‘nosini anglatgan.(Devon, II, 333); keyinchalik ma‘no kengayishi voqe bo‘lib “narsaning cheti, hoshiyasi” ma‘nosini anglati boshlagan; hozirgi o‘zbek adabiy tilida “katta oqin suvning yoqasi” ma‘nosini anglatish uchun ishlatiladi. Bu ot asli chet ma‘nosini anglatuvchi *қыр* (*yassi tog‘, baland tekislik*) otidan –g‘a qo‘shimchasi bilan yasalgan fe‘lga –q qo‘shimchasini qo‘shib yasalgan; tovush jihatida quyidagi o‘zgarishlar sodir bo‘lgan: so‘z oxiridagi g‘

¹⁰ Эркин Аъзам, *Шовқин*. Роман. Қисса.Ҳикоялар Тошкент- “O‘zbekiston” – 2011, Б-188

undoshi *q* undoshiga, *a* unlisi esa *o* unlisiga almashgan, *i* undoshi o‘zining qattqlik belgisini yo‘qotgan. Natijada, Qir + g‘a = qirg‘a

Qirg‘a + g‘ = qirg‘ag‘

Qirg‘ag‘ > qirg‘aq > qirg‘oq shakliga kelgan.¹¹ Umuman olganda qirg‘oq so‘zi turkiy so‘z bo‘lib, ot turkumiga qo‘shimcha qo‘shish bilan fe‘l turkumi, keyinchalik esa yana ot turkumi –q affiksi orqali yasalgan. Biz tahlil etayotgan misolda bu so‘z ko‘makchi vazifasida qo‘llanyapti. *Bir gal nimaningdir ustidan tortishib bahslashib, chekkani koridorga chiqdim, qaytib kirsam, karavot qirg‘og‘ida allanechuk bukchayib, ezilib – rasmona mo‘ysafidga aylanibgina o‘tiribdi.*¹² So‘zlarning yordamchilashishi turli asosda yuz berishi aytib o‘tiladi. Bu o‘rinda qirg‘oq so‘zi qay jihatdan yordamchilashganini ko‘rish uchun izohli lug‘atga murojaat qilamiz. Qirg‘oq suv havzalari va oqar suvlarning quruqlik bilan tutashgan kambar yer; lab; bo‘y; yoqa; sohil.¹³ Bu so‘zning, asosan, suv havzalar yoki maydonning cheti ma‘nosini izohlashini bildik, karavot qirg‘og‘i birikmasida ham xuddi shu ma‘no ifodalanyapti.

Xulosa. Ko‘makchilar faqatgina tobe bog‘lash vazifasini bajarib qolmasdan, balki nutqiy ta‘sirchanlik vositasi sifatida ham qo‘llaniladi. Ko‘makchilarga vazifaviy chegaralanganlik jihatidan qarash yordamchi so‘zlarning, jumladan, ko‘makchilarning emotsional-ekspressiv ma‘no ottenkalarini aniqlashga to‘sqinlik qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, - Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси нашриёти, 2006-2008.
2. Ўзбек тилининг етимологик луғати (туркий сўзлар I, II, III жилд). Университет. Тошкент. 2000.
3. Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. Шеърлар ва дoston. – Тошкент: Шарқ нашриёт-матбаа аксиядорлик компанияси, 2002. – 318 б.
4. Эркин Аъзам, Шовқин. Роман. Қисса. Ҳикоялар- Тошкент: О‘zbekiston – 2011, Б-188.
5. То‘хлиев В, Каримов В, Usmonova К. Adabiyot. 11-sinf (II qism), - Toshkent, O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2018.
6. Бехзод Фазлиддин. Сен қачон гуллайсан: Тошкент- Мехридарё , 2008.

¹¹ Ўзбек тилининг етимологик луғати . Университет. Тошкент. 2000.

¹² Эркин Аъзам, Шовқин. Роман. Қисса. Ҳикоялар Тошкент- “O‘zbekiston” – 2011, Б-188

¹³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, - Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси нашриёти, 2006-2008. 304-бет.